



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI  
HOKIMINING  
QARORI**

2024-yil 9-avgust

352-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati  
hokimligi

**Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi jamoatchilik  
Kengashi tarkibini tasdiqlash va faoliyati samaradorligini yanada oshirish  
chora-tadbirlari to‘g‘risida**

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning erkin faoliyati kafolatlarini ta‘minlash, davlat organlarining fuqarolar bilan yaqin hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ularning ochiq, shaffof va oshkora faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash, davlat va jamiyat o‘rtasida ta‘sirchan hamda samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi ”Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3837-son qarori hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayonnomasi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldati PQ-3837-son qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy nizomga asosan tashkil qilsin.

4. Jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanishi inobatga olinsin.

5. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi;

- fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta’minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha davlat organi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- viloyat hokimining qarorlari, hududiy dasturlar ijrosining o‘z vaqtida, sifatli bajarilayotganligi ustidan samarali va ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, mavjud holat yuzasidan tahliliy axborot kiritib borish;

- davlat organining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog‘lab turadigan “ko‘prik” rolini bajarish;

- davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- davlat organi faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- davlat organi faoliyati bo‘yicha fuqarolar o‘rtasida o‘tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- davlat organlari xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qilib borish va tegishli taklif-tavsiyalar kiritish.

6. Jamoatchilik kengashi (D.Shodmonov) kengash a‘zolari bilan birgalikda, bir hafta muddatda kengash faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 2024-yil yakuniga qadar bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni o‘z ichiga olgan ish rejasini ishlab chiqib, tasdiqlasin va ijrosini ta’minlasin.

7. Qashqadaryo viloyati hokimining 2021-yil 18-fevraldagi HQ-132/02-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Viloyat teleradiokompaniyasi (J.To‘ychiyev), axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (U.Nusurov)ga, mazkur qarorning mazmuni va ahamiyatini, kengash tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarni keng yoritilishini hamda aholiga yetkazilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari I.Arziqulov zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi**

**M.Azimov**

**Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi  
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
<b>Kengash raisi</b>		
1.	Shodmonov Davron Do'stmurodovich	“Yuksalish” umummilliy harakati Qashqadaryo viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari, viloyat hokimining maslahatchisi
<b>Kengash raisi o‘rinbosari</b>		
2.	Saodatova Lola Musurmonovna	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ning Qashqadaryo viloyati mintaqaviy vakili
<b>Kengash a‘zolari</b>		
3.	Inoyatov Yanvar Pulatovich	Qashqadaryo viloyati hokimining faxriylar bilan ishlash bo‘yicha maslahatchisi
4.	Tursunov Shuhrat Hamidovich	O‘zbekiston iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari Federatsiyasi Qashqadaryo viloyati hududiy birlashmasi raisi
5.	Sodiqov Ahror Kamolovich	Qashqadaryo viloyati hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi
6.	Allayev Dolli Xakimovich	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i
7.	Djurayev Baxtiyor Tuychievich	Qashqadaryo viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi raisi
8.	Karomova Komila Zaydullaevna	Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Qashqadaryo viloyat bo‘limi rahbari
9.	Raximov Botir	Qashqadaryo viloyat “Nuroniy” jamg‘armasi raisi
10.	Axmedov Abduqaxxor	O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Qashqadaryo viloyati tashkiloti raisi
11.	Xaydarova Zulfiya Umarovna	Qashqadaryo viloyati “Yuksalish” axborot-maslahat resurs markazi direktori
12.	To‘ychiyev Jahongir To‘ychievich	Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi direktori
13.	Nusurov Usmon Nusratovich	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

		Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i
14.	Rajabova Hulkar Shomilovna	Qashqadaryo viloyati xotin-qizlar tadbirkorlik markazi nodavlat notijorat tashkiloti direktori
15.	Karimov Kamoliddin Xakimovich	“Qashqadaryo” va “Novosti Kashkadari” gazetalari tahririyati bosh muharriri
16.	Erkayeva Gulbaxor Panjievna	“Zamon” mintaqaviy tadqiqot markazi nodavlat notijorat tashkiloti rahbari
17.	Radjapov Shirmamat Xolovich	Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi raisi
18.	Baratov O'lmas Qaxramonovich	O'zbekiston Milliy axborot agentligining Qashqadaryo viloyatidagi muxbiri
<b>Kengash kotibi</b>		
19.	Yangiyev Abdishukur Erkinovich	Yoshlar ittifoqi Qashqadaryo viloyati kengashi raisi

Izoh: jamoatchilik kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda kengash tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan shaxslar kiritiladi.

**Viloyat hokimi**



**M.Azimov**